

Choshgoh mahali.

Keng hovlining o'rtasidagi baland o'rik daraxti tagiga qurilgan supacha ustida ikki aka-uka qandaydir gap ustida tortishishardi.

- Nima?! ... Otamni o'zi shunday deptimi-a? Yo tavba, tavba uylanarmikan?! Qariganida-ya... Bu nimasiydi endi? Yo , Xudo qishloqda shu gap yetishmayotuvdi, o'zi. Ana sharmandalik, ye, qo'ysangchi yana hazil qilayotgan bo'lma, deya o'g'il qo'lidagi do'ppisini g'ijimladi.

- Hazil qisam, shunday hazil qilarmidim? Keyin otamning o'zi aytipti, demadim hali. Menga qolsa shunday bo'lsin depmanmi-a? Oqsoqolning gapini eshitganimga og'zim ochilib qoldi, o'ziyam. Nima deb, javob berishniyam bilmay qoldim. Keyin, mayli maslahat qilaylikchi, deb qo'ya qoldim.

Shunday deyar ekan kenja, daraxtga suyanib o'tirgancha kalishini yechib, ichiga to'lgan tuproqni yerga urib qoqdi. Gohi-gohi peshonasidagi reza-reza terlarni bo'yniga doimiy tashlab yuradigan ro'molga artib qo'yar ekan, onasini eslatdi.

Bu ro'mol onasini eslatib turadi, onasidan yodgorlikday gap. Undan hanuz onasining isi kelib turadi.

Eh, qaniydi, onasini yana bir bor ko'rsa, bag'riga bosh qo'ygancha, diydoriga to'yarmidi?... Mana uch yildirki onasi yo'q. Uch yildirki onasining uydagi, qishda paxta chigitlab, yozda ip yigirib o'tiradigan joyi bo'm-bo'sh.

Kichik o'g'ilning ko'zi sog'inchdan yoshlandi. Lekin buni akasiga bildirmaslik uchun o'rnidan turdi-da ketmonni yelkasiga tashlagancha , tushlik ham qilmay dalaga otlandi. Ketar chog'i, o'zi istamagan holda, "O'zing nima deysan, balki oqsoqol haqdirB ", dedi to'ng'ich.

Akasining bu gapi uning yuragini kuydirdi. Nimalardir demoqchi bo'ldi-yu o'zini to'xtatdi, axir akasida ayb yo'q-ku, umuman birovni ayblab o'tiradigan payt emas.

Kencha bir nima demay dalaga ketdi.

Bepayon dala Koshki shu dalalar onasini eslatmasa. Bu tuproq onasining mehnat teri bilan sug'orilmaganmi axir?! Har bir yashil o't-o'lanu giyohlar onasidan esdalik, uning bosgan izlaridan unib chiqqan.

O'g'il ketmonni yerga bir-bir urib, chopar ekan ko'z oldida onasi , olis o'tmishi gavdalanaverdi. Qo'li ishga bormadi.

Bolalik davrlari.

Chuldiragancha onasining ortidan ergashishlari.

Kunning qizig'ida yurmasin, boshidan kun o'tadi, deya onasi uni uyda qoldirar edi, enasining yonida. O'zi esa anchayin ulg'ayib

qolgan bolalari bilan quyosh ayovsiz qizdirib turgan dalaga ketardi. Qani endi kenjatoy uyda indamay qolaversa, menam qolmayman, dalaga boraman, deya xarjasha qilishi olamni buzgudek, qari enasining xay-xaylashiga ham qaramay, aka-opalarining ortidan chopardi.

Eh, ona-ya ona, o'g'lini bu ishi uchun koyigani bilan, yelkasiga opichlagancha barcha dala ishlarini shu ko'yi bitirar edi. Bolasini opichlagancha, paxtayam terardi, chopig'am chopardi.

Onasining joni toshdan qattiq bo'lganda, o'ziyam. O'shanda onaning qadriga yetmagan ekan. Oldingda oqqan suvning qadri yo'q, deb shunga aytishgan. O'g'ilning hech yodidan ketmaydi; Bolaligida sho'xlik qilib, onasini qattiq ranjitib qo'ygandi, akasi ikkalovi. Ularnikidan ikki-uch uy narida Xolmurod bova turardi. Negadir yolg'iz yashardi. Aytishlaricha, ancha yillar oldin uyiga o't tushib, kuyib kulga aylangan ekan. Xotini va bolalari yong'inda vafot etishgan ekan. Faqatgina bovaning o'zi tirik qolibdi. Haliyam o'sha yong'in tufayli kuygan yuzlarida izi qolgan.

Xullas, Xolmurod bovaning yakka o'zi turadigan hovlisidagi uzum toklari qiyomat meva solgandi, o'ziyam. Qishloqdagi barcha uylar qatori bovaning hovlisiyam devor o'rnida nomiga shoh-shabbalar bilan aylantirib chiqilgandi. Tabiiyki, marjonday tizilib turgan uzumlar shodasi o'tgan-ketganing ko'zini olar edi. Ular faqat mazza qilib yeyish uchun yaratilgandi. Boshqa narsa uchun emas.

Xolmurod bova tok soyasidagi temir kravotida, bir otim nosni tili tagiga tashlab olib , kayf qilgancha uzumlarini qo'riqlab yotardi. "Bova , uzum yeylik!" deya so'rab kelgan bollar, enasining uch qo'rg'onini ko'rardi; yo yaxshilab kaltak yerdi, yo bo'ralatib so'kish eshitar edi. U yomon chol emasdi, faqat o'larmanday ziqna edi. Shuncha uzumni nima qiladi, bekorga daydi qushlar cho'qib tashlagach, arilar xuzurini ko'radi. Undan ko'ra , shu bolalarga bersa, savobi tegadi-ku qurmag'ur cholga, - deb qayg'uradiganlar chiqardi qishloqdan. Bunday uzun-quloq gaplar bovaning qulog'iga chalinib turardi albatta, lekin foydasi yo'qda. Bovaning o'zi aytmoqchi, "menga o'ziyam chepuxa, gapiyam".

Bir kuni Xolmurod bovaning uzumlariga rosa ishq ketgan to'ng'ich va kenjatoy o'g'il bog'ga kelgan. Ularning niyati boshqa bollarnikiday yomonmas , o'g'irlik qilish niyati yo'q edi. Bovadan bir-ikki bog' uzum so'ramoqchi edi, xolos. Ikkalovining uzum so'rashga iymani bmi bir chekkada turishini ko'rib, noto'g'ri tushungan chol yumshoqlik bilan: "Kelinglar , uzum beraymi, kelaveringlar! Ana to'ygunlayingcha yenglay!B " , dedi chol og'zidagi nosini tupurishdan oldin. Ana Xudo berdi! Uning bunchalik saxiyligidan na quvonishni va na cho'chishini bilmagan bolalar , sekin kelib tortinibgina shoxga qo'l cho'zgan edi hamki, bova ularni savalay ketibdi.

Keyin bolalarni onasining oldiga sudrab borgancha, "O'g'rivachchalarini yig'ishtirib ol! Tarbiyalash qo'lingdan kelmasa, o'zim tarbiyalab qo'yaman, tufe-ey senlarga!B " deya chirtilattib tupurdi va bolalarga qarab, "Baribir otangga tortibsanlarda, ming qilsayam, mol egasiga o'xshamasa harom o'larkanB " , dedi zaxarxandalik bilan ortiga burilar ekan yana qo'shib qo'ydi: "Otanga o'xshamay o'l-a!"

Avvaliga hech nimaga tushunmagan bolalar boya bovaning tuzog'iga tushib qolganligini kechroq angladi.

- Cho'loq, - deya qichqirib yubordi to'ng'ich cholning ortidan, onasining bir ahvoldaligini ko'rib.

Bova boyagi gaplaridan bir yil oldin o'g'irlikda ayblanib, tuxmat bilan qamalib ketgan bolalarning otasini nazarda tutayotgandi.

Ayniqsa begunoh farzandlarini "o'g'rivachcha" , deya haqoratlagani onaning jon-jonidan o'tib ketdi.

- Uzum yegancha , zaxar yesalaring bo'lmasmidi, - deya zorlanib yig'ladi ona, o'g'illarini kaltak bilan siylab bo'lgach. Onaning so'zlari o'z manosida emas edi albatta, u buni o'g'illariga tilamaydi.

Alam o'ti aka-ukalarni jizg'anak qilayotgandi. Buning davosi esa faqat intiqom. Shundagina alanga so'nishi mumkin. Ular onasini qattiq ranjitib qo'yishganini sezgandi. Lekin bog'ga yomon niyat bilan bormagandi-da ular. Bova, uzum bermayman, deganida, indamay qaytib kelaverishar edi. Xolmurod bova unday qilmadi-da.

Albatta , bu qilmishi uchun bolalar ham uni quruq qo'ymadi.

Anchayin sho'x to'ng'ich , ukasi va ko'chadagi o'rtoqlari bilan bovaning tazirini berib qo'ydi.

Reja bo'yicha, bolalardan biri , Xolmurod bovaning xovlisi bir burchagidan chaqira-chaqira qochdi. Hassasini sekin dukillatib, ovoz tomon kelgan tomonga yetib borgancha, bu yoqda tayyorlanib turgan bolalar to'dasi uzumzorni talab ketishdi. Ular cholni

bir-ikki shunday ovorai-sarson qilgach, urra qochishdi.

To'g'rida, he yo'q, be yo'q mo'ysafid odam, bolalarni urib-so'kkani yetmaganday, onasini haqoratlagani nimasiydiB ?B ! Shu qurib ketgur uzumni deb, shundayam qiladimi odamB ?!

Umr o'tkinchi ekan. Xolmurod bova o'tib ketgach, uzumlariga qaraydigan odami qolmadi. Bir ikki yil rosa meva berdi, keyin qarov bo'lmagach qurib qaqshab qoldi.

Bolalarning otasi qamoqdan qaytdi. Yana bir butun oila bo'lishdi. Qizlar bo'y yetgach uzatishdi, o'g'illarniyam uylashdi. Endi qarilik gashtini suraman deganida onasi og'ir dardga chalinib qoldi. Kasallik shunchalik ildiz otib urgurgandiki, ona to'shakka mixlandi.

Noumid shayton. Bolalarning otasi, farzandlar birgalikda uni olib bormagan shifoxonasi, ko'rsatmagan do'xtiri qolmadi.

Shifokorlarning ko'rsatgan karomati bilan onasining umri bir necha oylarga uzaydi xalos.

- Kasallik yillar davomida tomir otgan, onalarningning ahvoli og'irlashmagunga qadar bilmagansilar. Endi ancha kech qoldilaring, - deya qizlarni izillatgandi do'xtir. Ularning otasiyam o'shanda onasi bilan birday ozib-to'zib ketgandi. U ayolini nihoyatda qadrlar edi. Shuni aniq sezib turardiki, ayolining shu ko'yga tushishiga o'zi aybdor. Oilasiga yetarlicha g'amxo'rlik qila olmaganligi, turmadaligida ayoli bolalarga ham ota, ham ona bo'lib, dalada issiq-sovuq demay kuyib yonganlari, mana endi o'z kuchini ko'rsatayotganligini anglar edi.

Olamga xira qorong'ulik pardasi yoyilgan mahal. Tabiat kuychilari chigirtka-yu baqalar tag'in o'z kuylarini goh baland, goho past tovushlarda, galma-gal, jo'r bo'lib kuylamoqda. Terak shoxlariga in qurgan bir to'da chug'urchuqlar galasi yu ba'zan ovozi eshutilib qoladigan boyo'g'lida ularga jo'r bo'lmoqda. Podadan kaytayotgan mollar to'dasi, qo'y qo'zilar tinmay ma'rab, ular ham o'zlarining borligini eslatib qo'yayapti.

Xuddi shu mahal kench a o'g'il qishloqdoshlari kabi daladan qaytdi.

Odatdagiday keng hovli o'rtasidagi katta so'rida dasturxon to'shalgan, to'rdagi otasining joyi bo'sh edi. Demak hali masjididan qaytmagan.

Kenja yuvinib kelgach, so'ri ustiga to'shalgan atlas ko'rpga cho'zildi. Shu yerda o'ynab o'tirgan, endigina tili chiqqan qizi unga talpindi. U o'rnidan turib qizini tizzasiga olgancha erkaladi.

- Asal qizim, dada degin, da-da. Keyin ho'ppa qilaman!

- KeldingmiB ? dedi ko'cha tarafdan kirib kelgan akasi so'riga chiqar ekan. U yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu qizini o'ynatib o'tirgan ukasining kayfiyatini buzilishidan hadiksirab indamadi.

- Xotin, - deya chaqirdi kenja, - qizimiz ishtonini ho'llaganga o'xshaydi. Almashtir!

O'choq tarafda ovsini bilan kuymalanib yurgan juvon bir zumda yetib kelib, bolani olib ketdi.

Otasi masjididan qaytdi. O'g'illariga bir qarab qo'ydi-da mol-holdan xabar olish uchun molxonaga o'tib ketdi.

- Sharofatnikidan kelayapman. Ertaga maslahatlashadigan bo'ldik ularnikida, - deya ukasiga qarab gap boshladi to'ng'ich, - Hamma kelsin dedim.

- Opamlarnikiga borishdan oldin ... Balki, avval otam bilan gaplasharmiz-aB ? dedi kenja haliyam umid qilib, - Oqsoqol aytaveradi-da, otamning ko'nglini bilib o'tiribdimiB ? Kim biladi, balki otam rozi bo'lmas.

- Istimang yo'qmi mabodoB ? dedi aka uning ustidan kulganday, - Nima deysanB ? Ota sizga xotin, bizga ona kerakmi deysanmi-a? Undan keyin.

- Aka, men ko'nikishim qiyin onamning o'rnida boshqani ko'rishga, tushunayapsizmi shuniB ?

Aniqki, uning asablari qaqshayotgandi. Shuning uchun aka bir zum indamadi, ukasi o'zini bosib olguncha.

- To'g'ri, menda kuyinayapman., - dedi aka sekin, xomush ovozd, - Onamni eslasam, yuragim pora-pora bo'ladi. Singlimnikiga borish qaroriga kelguncha, keyin unikiga yetguncha nimalarni o'ylamadim deysan. O'ylarimdan xulosa qildimki, biz faqat o'zimizni o'ylayapmizmi?

- Bu ishlarimizdan onam go'rida tik turmasaydi...

Aka-uka shu ko'yi, to otasi og'ilxonadan chiqkunga qadar suhbatlashib o'tirishdi.

Tunov kuni kenja daladan qaytayotib, qishloq oqsoqolini uchratgandi.

"Otang qarib qoldi. Yonida issiq-sovug'idan xabar olib turadigan suyanch kerak. Kelinlar baribir kelinda, kampirning o'rmini bosolmaydi. Onangning o'tganigayam mana qariyb ikki yil bo'ldi. Sezgandirsana, otang shundan keyin o'zini ancha oldirib qo'ydi.

Avvalgi shashtiyam yo'q. Shu desang o'g'lim, kampir olib berish, silarning ham farz, ham qarzlaring. Bilaman, otang nihoyatda oriyatli inson. Bu masalada o'g'illariga gap ochish u yoqda tursin, og'iz juftlashi dargumon. Shuning uchun akang bilan o'zlaring bosh bo'linglar, bu ishga. Otangni esa menga qo'yib beringlar. O'zim gaplashaman "B, - degan edi oqsoqol.

Hamma gap shu, farzanlarning yig'ilishiga sabab bo'lgan. Opa-singilu aka-ukalarning bari yig'ildi. Hol-axvol so'rashib, mayda-chuyda haqidagi suhbatlardan keyin asosiy mavzu, bu yerga yig'ilishiga sabab bo'lgan masalaga, ya'ni maqsadga o'tildi.

- Qishloq oqsoqoli bizga maslahat solgandi; "otangni uylantiringlar, bu farzandlarning otalar oldidagi farzidir" dedi. Yig'ilishdik, bunga nima deysilar.

Shunday deya masalani ochib berdi to'ng'ich o'g'il.

G'ala-g'ovuridan quloq qomatga kelay deydigan davra birdaniga sovudi. Kayfiyat kengligida xiralik yoyildi. Hammaning ko'ngli bir qur cho'qdi. Allaqachon kimlarningdir yuzida norozilik alomatlar sezila boshladi. Har qalay bu yangilik ularga xushxabar emasdi. Har qaysining boshida har xil o'y. Kench a o'g'il esa hamon xomush, onasini eslardi. Balki onasi bunga rozidir Balki Oydin oilada uchinchi farzand. Qizlar ichida yoshligidanoq shaddodi, shartaqisi edi. Yoshligidayam birov bilan tortishib qoldimi, beting-yuzing demay, hayoliga kelgan gapni qo'yvoraverar edi. Aka-ukalari bilan tengma-teng olishardi. Shunday bo'lsada onasidan o'larday qo'rqardi. Onasi qovog'ini bir uysa, tinchib qolardi. Uyni yalab yulqashmi, non yopishmi, ovqat tayyorlashmi, hammasini baloday eplardi. Ishdan cho'chimas, dala ishidayam aka-opasidan, atrofdagilardan qolishmay ishlar edi. O'g'il bola fe'li bor edi. Hozir esa Oydin anchayin bosiq, ammo bolaligidagi harakteridan saqlanib qolganlari bor.

- Otamning o'zi bir nima demagandan keyin, qo'yinglar shu ishni. Onamni go'rida tik turg'izmanglar! Men umuman qarshiman, bo'magan gap, onamning o'rniga qaerdagi ayol kelishi.

Oydin o'ylaganini shartta aytdi-qo'ydi. Unga og'ir botgandi bu xabar, hamma qatori. U boshqalarning ichidagi gapni topib aytdi. O'z xayollari bilan andarmon bo'lgan katta opa Sharofat dediB :

- Otamni men bilaman, deb o'ylardim. Otam onamni unutulmaydi. Bir og'iz o'zi bilan gaplashish kerakmidi, aB ?

- "Otangni menga qo'yib beringlar", dedida oqsoqol. Agar otam rad qilganda, oqsoqol "qo'yaveringlar" derdi.

Keyin har kim har nima dedi. Lekin birovi, "mayli, rozimiz, otamga munosib kampir izlash kerak!B " degan gap qilmadi.

Qizlarning kenjasi esa sho'rqilagani-sho'rqillagan.

- Onam sho'rlik tirik bo'lganlarida edi....Onaginam-a....

Jo'yali bir fikrga kelinmadi.

Faqat tong otgach hammasi hal bo'ldi; barcha otasini uylantirishga roppa-rozi. Bu qarorga kelishlariga ham tuppa-tuzuk sababchi bor: tushida onasini ko'rib chiqqan kencha o'g'il.

"Saxarlab tush ko'ribman. Onam, dilxira o'tirganmish. Onamni biz xafa qilib qo'ydidig-ov. - Bu ishlaring nimasi, nega oqsoqolning aytganini qilmaysan? dedi onam. Ha, aniq esimda, shunday dedi. Yana allanimalar dedi-yu faqat xotiram pand berayaptida, lekin so'zlaridan onam rozi edi otamni uylantirishgaB".

Aka-uka uyga qaytdi. Ularni kecha uyda ko'rmagan ota so'radi:

- Ikkovlon bo'lib qaerga jo'nagandilaring?

Bir zumlik sukutdan so'ng, ularga tikilib turgan otasining yuziga qarolmay kencha gap boshladi.

Opamnikida

Nimadandir xavotirlangan aka darhol ukasiga o'graydi. Uning gapini shartta bo'lib:

- Ha, kechami... Sharofatnikida edik. To'y boshlamoqchi ekan, - deya dadillandi to'ng'ich. Yolg'onni otasi sezib qo'ymasin uchun ko'zlarini olib qochib.

- Hmmm... Shundaymi, o'g'lini uylantirmoqchimi? Kap-katta yigit bo'p oqptida Sharofatning bollariyam... dedi ota oppoq soqolini silagancha.

O'g'illar bir-biriga manoli qarab qo'yishdi.

Ularning endigi qiladigan ishi otasiga munosib juvon izlash edi. Bu ishni o'g'illar xotinlariga ishonishdi. Hatto bunga yeng ko'p norozi bo'lib yurgan Oydinning o'zi kelib bosh-qosh bo'ldi, hammani lol qoldirib. U kelinlar bilan birga otasiga kampir topdi ham. To'ygga tayyorgarlik boshlandi.

Uyda bo'layotgan ortiqcha g'imirlarni ota ham sezgandi albatta.Lekin u bilardiki, uning maslahatisiz oilada hech qanday to'y-maraka o'tkazilmaydi. Shuning uchun otaning ko'ngli to'q edi.

Otasining lom-mim demayotganligini o'g'illar o'zlaricha nimalargadir yo'yishdi; Oqsoqol aytgan ekanda. Shuning uchun hech nimani so'ramayapti otam.

Lekin bir kuni

"Kallai saharlab qassob nima qilib yuribdi!"

Molxonadan chiqib kelayotgan o'g'li bilan qassobni ko'rgan ota taajublandi. - Bo'rdoqi-ku bo'rdoqi, omma leken molni zo'r boqibsilar.

- To'yni shuning o'zi ta'minlaydimikan-a?

- Ta'minlash gapmi ortib qoladi, ortib. Ko'rasan go'shi zo'r, qurmag'urning. To'ydan keyinam mazza qilib, yeb yotishlariga yetadi.

"Sharofatning to'yi tezlashibdimikan-a? O'g'illarim to'yonaga xo'kizni jo'natishni yaxshi o'ylabti-ya, lekin so'yib nima qiladi?

To'yxonada so'yilaversin-da. Menga nimaga maslahat solmaptikan buniB ?B"

- Mayli ukam, to'ydan bir kun oldin kechga so'yamiz molni. Aytib kelaslar, kuni aniq bo'lsa, - deya qappaygan qorinli qassob lapanglagan darvoza tomon yurdi.

Uni kuzatib qaytgan to'ng'ich haligacha supada o'tirgan otasini ko'rmagandi.

- O'g'lim, - deya o'zi chaqirganidan so'ng otasining so'ridalini bildi va supachaga tomon yurdi.

- To'yni tezlatibsilarda-a, shunisiyam ma'qul. Bo'ladigan ishning tezroq bo'lgani yaxshi.

O'g'il otasining dabdurustdan aytgan bu gapidan angrayib qoldi. Nahotki otasi shunday deyapti... Demak o'zi uylanishni istagan ekan. To'g'ridan to'g'ri bizga aytmay, oqsoqol orqali istagini yetkazmoqchi bo'liptida...Onamni qanday ko'zi qiydi ekan-a ...

Sho'rlik onam-a...

- Cho'zganda nima qildik. Padarimizni uylantirish ham farzimiz, ham qarzimiz ekan. Shuni ado qilaylik deb....

Otaning boshiga gurzi tushganday, qalqib ketdi. U nima deyapti-yu o'g'li nimani aytayapti.

- O'g'lim, nimalar deyapsan? Kimni uylantirmoqchisan.... Qanaqa to'y?!

To'ng'ich alam aralash kinoyali kuldi.

- Ota, gapni o'zingiz boshlab, tag'in mendan so'raysiz-a. Undan ko'ra qishloq oqsoqolidan so'rang! Har qalay menikimasdir, Sizni to'yingizda, sizni....

Otaning quloqlari shang'illab ketdi. O'g'lining so'ngi gaplari hamon qulog'i ostida jaranglardi.

- To'y degin, to'y.... Rahmat o'g'lim, ming rahmat...

Yuragida turgan sanchiq a'zoyi badanini qaqshatdi. Og'riqning zo'ridan ustuxonlarigacha zirqirab ketdi. U sudralgan xonasi tomon yo'l oldi. Tobora zilday og'irlashib borayotgan gavdasini zo'rg'a ko'tarardi. Go'yo birov yelkasiga og'ir yuk ortib qo'yganday, oyoqlari qaltirar edi. Ming azob bilan xonasiga yetib kelgan cholning deyarli madori qolmagandi. Hali kelini yig'ib ulgurmagani joyiga qayta cho'zildi. Devorga osig'lik turgan bir umrlik yo'ldoshining rasmiga sassiz tikildi. Ko'zlaridan tirqirab oqayotgan yosh yuzini yuvdi.

- Ketar ekansan, meni ham o'zing bilan olib ketsang bo'lmasmidi, onasi ... quruqshagan lablari bexol shivirladi.

Yuragini huddi birov changallab azob berayotganday edi. Undagi bu hol ikkinchi marotaba sodir bo'layotgandi. Bolalarning onasi vafot etgan kuni u shu holni boshdan kechirgandi.

Og'riq yanada kuchaydi. Yuragini changallab turgan qiynoq uni qo'yib yuboray demasdi.

Shu payt.... Huddi shu payt....

Kimdir uni ohista turtganday bo'ldi. Boyadan beri qiynayotgan og'riq taqqa to'xtadi.

- Meni chaqirdingizmi?...

- Hayriyat, keldingmi... Faqat ketib qolma, ketsang meni ham olib ket. Bu safar ham yolg'iz qoldirma....

- Axir o'g'illaringiz....

- Ular endi o'zlarini eplay oladi. Meni deb ko'p ovora bo'lishayapti... Ayniqsa to'ng'ichim menga ko'p kuyinadi. Ular Seni bilmaydida haliyam yonimga kelib turishingni.

- Ketdik... mening ham yolg'iz ketgim kelmayapti!

Yurak urishdan taqqa to'xtadi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Farzandaning o'zini yig'ib olib, butun qishloqni, faqatgina to'ng'ich yig'lamadi. Butun tanasi-yu ming bitta tomiri bo'ylab yoyilgan iztirob iskanjasida qolgandi.

Lablari tinmay pichirlardi:"Ota, kechiring otajon!"

Azaga deyarli qishloqdoshlarning hammasi keldi. Faqat oqsoqol ko'rinmadi. Bir necha oy avval ziyoratga ketgan ekan.